



## MAVZU: TA'LIM MUASSASIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH

Sayilova Muxabbat Yangibayevna,  
Oriental Universiteti Ta'lismenejmenti fakulteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'limgani zamon talabi darajasida isloq qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko'tarish muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'limgarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlari ko'rsatib berilgan hamda oliy o'quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Ta'lism sifati, innovatsion faoliyat, yondashuv, pedagogic soha, axborot, zamonaviy ta'limgan, ilg'or tajriba, loyiha faoliyati, talabalarga yo'naltirilgan ta'limgan, salomatlikni tejaydigan texnologiyalar, tadqiqot faoliyati, axborot va kommunikatsion ta'limgan, o'yin texnikasi.*

### KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'limgarayonining rivojlanishi dinamikasi ta'limgarayonini tashkil etish, o'quvchining mustaqil shaxs sifatida erkin faoliyat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida bir qator muhim izlanishlar olib borish, jiddiy qadamlar qo'yishni taqozo qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limgani tizimli isloq qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limgarayonining innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish konsepsiysi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi.<sup>23</sup>

Mustaqillik asnosida, umumbashariy qadriyatlarga tayangan, go'zallik-ezgulik-adolat tamoyillariga asoslangan adabiyot ilmi qaror topdi. Adabiyotshunoslik ilmi yangi-yangi talqin va tahlil metodlari, usullari bilan o'z imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda, ildiz otib, palak yozmoqda.

*"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun*

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni



*zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - deydi Sh.Mirziyoyev ta'lif-tarbiya haqida o'z nutqida.*

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalshga bog'liq. Ana shunday muhim vazifani amalga oshirish uchun Vataniga, xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri bo'lib turadi. Ma'lumki, hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, madaniyatatlilik, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida mas'uliyatni his etishni talab etadi. Insonparvarlik, demokratik, mustaqil davlat quruvchi har bir inson ana shu xislatlarga ega bo'lishi zarur.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamон talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quvmetodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lif tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamонaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”<sup>24</sup> degan da'vatlari ta'lifning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ2707-sonli, “Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017-yil 9- sentyabrdagi PQ3261-son qarorlari, “Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017- yil 30-sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.

<sup>24</sup> Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2016. -488 b.



“Maktabgacha ta’lim konsepsiysi”ning paydo bo‘lishi maktabgacha ta’lim mazmunini yangilash, umumiy amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va pedagoglar tomonidan o‘qitishning yangi usullari va shakllarini o‘rganish bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalarni qizg‘in muhokama qilishning boshlanishi bo‘ldi. Mahalliy maktabgacha ta’limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish normativ va dasturiy-metodik hujjatlarda aks ettirilgan. Ushbu ishda ta’limning barcha darajalari, metodologiya xizmati, ilm-fan va amaliyotning barcha darajadagi mutaxassislar ishtirok etib, birlashtirilgan ta’lim maskani yaratildi.

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasini va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo‘ladi.

Ulug‘ donishmandlardan biri «...keljak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan



o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, keljak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'lilda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarini egallab olishidir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

-darsning maqsadi;

- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.



Ta'lism-tarbiya jarayonida o'quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy me'roslarini o'rghanishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o'ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o'quvchilar juda ko'p miqdorda ma'lumotlarni olish, izlash qayta ishslash va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lism jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta'lism darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin.

Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmакetlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagи atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday ajanganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

11. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. – T., O'zbekiston, 2016.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi, 2017 yil, 8 fevral)
13. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017.
14. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston, 2017.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi, 2017 yil, 21 aprel)
16. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.
17. Gushchin Yu.V. Oliy ta'limda interfaol o'qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No - B. 1-18.



18. Zaxarova, I.G. Ta'limdi axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008., 338-bet

19. Kovalenko E.M. Ta'limdagi interaktiv texnologiyalar va elektron ta'lim elementlari // Ta'limi modernizatsiya qilish sharoitida interaktiv ta'limming zamonaviy tizimi. Ilmiy-metodik konferensiya materiallari; Janubiy Federal Universiteti). - Rostov-na-Donu: Janubiy federal universiteti nashriyoti. - B.47-50.

20. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o'chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.

